



THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS

Nafisa Saidakhmatova

Master of Termiz State Pedagogical Institute

Lobar Mukhtarova

Head of the Department of Primary Education
Methodology of Termiz State Pedagogical Institute

Abstract:

The article describes the issues of developing oral and coherent speech, increasing vocabulary, teaching to read correctly and expressively, as well as the formation of reading and speech culture and the ability to think independently.

Keywords: work on vocabulary, retelling of the read text, reading literacy, perception of the artistic work, work on the text.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O‘qish (umumiyligi o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflari o‘quv rejasidagi adabiyot) fani og‘zaki va izchil nutqni o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qish fanini o‘qitish orqali o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish; mutolaaga muhabbat uyg‘otish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o‘stirish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o‘quvchining fikrlashini o‘stirish ko‘zda tutiladi [1]. O‘qish savodxonligining bu ko‘rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalarini aks ettiradi. O‘quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o‘quvchi ma’noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi) [2].





O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamlı ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop maqolalar amaliy ravishda o'rganiladi. Turli janrdagi badiiy asarlardan foydalanish, stilistik jihatidan o'ziga xos hususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qitishda o'qituvchi unga mos metodlar tanlashi talab etiladi.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqeа hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. "Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiyydir". Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqeahodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishslash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi.

So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqeа-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi. Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish asosiy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'yashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi.

O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan



keyingina hikoya xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalilaniladi. Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishslash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalilaniladi.

Kichik badiiy hikoyani izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika);
2. Hikoyani (to'liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi;
3. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);
4. Hikoyani qayta o'qish, qismlarga bo'lib o'qish, o'quvchilarga o'qitish, ayrim so'zlarni ma'nosini tushuntirish.
5. Hikoyani har bir bo'limi yuzasidan suhbat o'tkazish va sarlavha topish.
6. Hikoyani ayrim bo'limlarini ifodali o'qish 7. Reja asosida qayta hikoyalash
8. Hikoyani sinfda yoki uyda ifodali o'qishga yoki sahnalaشتirishga tayyorlash
9. Hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash Bu hikoyani o'qish darsi rejasining variant bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, badiiy hikoyani o'qish darsida uning mazmunini, asosiy fikrini bilish bilan birga, asarning tarbiyaviy, xususan, estetik ta'siri ham ko'zda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Biz o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarimizni o'qish savodxonligi bo'yicha eng yaxshi natijaga erishishi uchun o'qishga ijobiy munosabatda bo'lishini ta'minlashimiz kerak.



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Umumta'lim maktablarining milliy o'quv dasturi/ Ona tili.-T.: 2021.-170-b.
- 2.Muxtarova L.A., Saidaxmadova N.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari. "Oilaviy munosabatlar destruktsiyasining psixologik tadqiqi: muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Termiz: 2022 yil. 402-405 b.
- 3.Munzifa Tangirova, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). WAYS OF READING LITERACY DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. European Scholar Journal, 4(2), 88-89.
- 4.Abdimannabovna, M. L. (2022). Opportunities for an Interdisciplinary Integrated Approach to Improving the Culture of Environmental Safety. Eurasian Scientific Herald, 7, 7-12.
- 5.Abdimannabovna, M. L. (2021). Possibilities of an Integrative Approach to the Formation of A Culture of Environmental Safety. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.
- 6.Mukhtarova, L. A. (2021). The Use of Innovative Educational Technologies in The Formation of a Culture of Environmental Safety. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.
- 7.Мухтарова, Л. А. (2017). Boshlang'ich Sinflarda Internet Va Multimediya Texnologiyasidan Foydalanishning O'ziga Xos Xususiyatlari. In Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии (pp. 47-49).
- 8.Мухтарова, Л. А. (2017). Boshlang'ich Ta'lim Samaradorligini Oshirishda Innovatsion Ta'lim Texnologiyalarining O'Rni. In Научный Поиск В Современном Мире (pp. 119-120).
- 9.Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. Гуманитарный трактат, (24), 9-10.
- 10.Мухтарова, Л. А. (2017). Boshlang'ich Sinflarda Rivojlantiruvchi Ta'lim Texnologiyasidan Foydalanish Imkoniyatlari. Апробация, (2), 93-94.
- 11.Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. Гуманитарный трактат, (24), 13-14.
- 12.Мухтарова, Л.А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. Научные горизонты, (11-1), 247-252.
- 13.Tangirova, M., & MUKHTAROVA, L. (2023). WAYS OF READING LITERACY DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. European Scholar Journal, 4(2), 88-89.



- 14.Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1781-1785.
- 15.Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 648-652.
- 16.Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(6), 73-76.
- 17.Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.
- 18.Uralboy Kulmuminov, & Lobar Mukhtarova. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81–84.
- 19.Abdimannabovna, M. L., & Sharifovna, Y. D. (2019). Implementation Bases Of Using Multimedia Technologies In The Organization Of Educational Process. Think India Journal, 22(4), 5898-5904.
- 20.Melimurodovna, D. D., & Abdimannabovna, M. L. (2023). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. Open Access Repository, 4(3), 971-976.
- 21.Melimurodovna, D. D., & Abdimannabovna, M. L. (2023). ISSUES OF MATHEMATICAL LITERACY DEVELOPMENT IN WORLD SCIENCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(3), 307-311.
- 22.Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. Open Access Repository, 4(2), 434-437.